my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 9274-1567-76e6-0087-1d90-0679-1243
Ҳужжат яратилган сана: 2025-01-02
Ариза рақами: 164099571

Ҳужжат берилган: "INTER ACTIVE-TEAMS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 306458556

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВА УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шахар Қурилиш бош бошқармаси

Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи органининг

2025-01-03 даги 164099571 -сонли

ХУЛОСАСИ

т/р	Тақдим этиладиган маълумотлар	
1.	Ариза рақами:	164099571
2.	Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи:	"INTER ACTIVE-TEAMS" MCHJ
3.	Лойиҳа-смета хужжатларининг буюртмачиси номи:	“INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH INJINIRING KOMPANIYASI” ДМ
4.	Объект манзили:	Олмазор тумани, Норозтепа кўчаси, 65/1-уй
5.	Лойиҳа-смета хужжатларининг номланиши:	TOSHKENT SHAHRI, OLMAZOR TUMANIDA JOYLASHGAN TOSHKENT VILOYATI SOG’LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI MAXSUS TIBBIYOT BAZASINING BO’SH YER MAYDONIDA YANGI 540 O’RINLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINI QURISH
6.	Архитектура-режалаштириш топшириғининг реквизитлари:	1726-1726280-201863

Лойихани кўриб чиқиш натижаси

т/р	Категория	Натижа	Изох
1.	Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги:	Ижобий	
2.	Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
3.	Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
4.	Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги:	Ижобий	
5.	Қурилиш чизиғига амал қилинганлиги:	Ижобий	

6.	Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги:	Ижобий	
7.	Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
8.	Лойиҳада имконияти чекланган шаҳсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги:	Ижобий	
9.	Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
10.	Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги:	Ижобий	
11.	АРТ талабларидан четга чиқиш:	Ижобий	

Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:

Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати: Келишилган;
Қўшимча маълумотлар: Olmazor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprel kunidagi “Arxitektura va qurilish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-sonli qarorining 4-ma’muriy reglamentiga asosan Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganish Xulosasi; 23/26-2473 “ 14 ” dekabr 2024-yil "INTER ACTIVE-TEAMS" MChJ raxbariga Olmazor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, Sizning YaIDXMga 14.12.2024-yil kunidagi №164099571-sonli arizangizga asosan "INTER ACTIVE-TEAMS" MChJ loyiha tashkiloti tomonidan, “INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH INJINIRING KOMPANIYASI” DAVLAT MUASSASASIga qarashli belgilangan “Gulzor” MFY Noraztepa ko‘chasi 65/1-uy yonida joylashgan Toshkent viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi maxsus tibbiyot bazasini mavjud yer maydonida 540 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkiloti binosi qilish sifatida ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarining arxitekturaga oid qismini o‘rganib chiqib qurilish ishlari olib borilishiga qarshilik bildirmaydi. Shuningdek, ob’ekt qurilishi bo‘yicha ishlab chiqilishi rejalashtirilgan ishchi loyihalarni respublikada amalda bo‘lgan shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan yong‘inga qarshi talablarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozimligi ma’lum qilinadi. Yong‘in va favqulodda vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan respublikada amalda bo‘lgan shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan yong‘inga qarshi talablarni bajarilmagan taqdirda, ushbu xulosa o‘z kuchini yo‘qotib javobgarlik loyixa tashkilotini zimmasida qoladi. Bo‘lim boshlig‘i N.Xatamov Ijrochi: J.G.Po‘latov Telefon: (71)228-46-66;

Ҳудудий санитария-эпидемиология хизмати: Келишилган;
Қўшимча маълумотлар: Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo`mitasining Toshkent shahar Olmazor tuman bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona ma’muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”ga asosan, 03-11b/758-sonli 17 dekabr 2024 yil “Inter aktive-teams” MChJga Olmazor tumani sanitariya epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo`mitasi bo‘limi tomonidan, Sizning YaIDXMga 14.12.2024 yil kunidagi № 164099571-sonli arizangizga asosan Olmazor tumani, Noraztepa ko`chasi manzilida joylashgan "Olmazor tumanida joylashgan viloyat SSBB maxsusu tibbiyot bazasining bo`sh er maydonida yangi 540 o`rinli maktabgacha ta`lim tashkilotini qurish" yuzasidan ishlab chiqilgan dastlabki eskiz loyihasi o‘rganilib, quyidagi sanitariya epidemiologiya talablarni bajarish sharti bilan hujjatlarini rasmiylashtirishga e’tiroz bildirmaydi ya’ni; -O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik Kodeksi” Kodeksning barcha moddalariga qat’iy amal qilgan holda, tavsiya etilayotgan yer uchastkasida binoni joylashtirish arxitektura-rejalashtirish nuqtai nazaridan baholash imkonini beradigan erkin masshtabdagi bosh rejasi tayyorlanishini;- ShNQ 2.07.01-03*

“Shaharsozlik” hujjatning barcha bandi, ilovalari talablariga, №1-ilovaning (majburiy)№1-jadvali va 44-jadvali talablariga asosan ajratilayotgan xususdda qurilishi mo‘ljallangan bino qo‘shni xududlarda mavjud bo‘lgan turar va noturar joy binolari bilan oraliq masofalarni saqlanishini hamda qurilishi mo‘ljallangan bino loyihasi bilan qo‘shni hududlarda mavjud bo‘lgan turar va noturar joy binolari egalari tanishtirishi, maxalladan tasdiqlangan holda rozilik xati olinishi; ShNQ 2.07.01-03-sonli, “Shaharsozlik” hujjatning №1-ilovaning (majburiy) №1- jadvali va 44-jadvali talablariga asosan mavjud bo‘lgan turar va noturar joy binolari bilan me’yoriy oraliq masofalari saqlansin, ShNK 1.03.01-16 ning 1.13 bandi talablari bajarilsin, 22-bet. ShNQ 2.07.01-03* 21.1. Turar-joy binolari, turar-joy va jamoat, shuningdek sanoat binolari o‘rtasidagi masofalar quyosh nurining tushishi (insolyatsiya) va yoritilganlikni hisoblashlar asosida, asosiy turar-joy binolari va xonadonlari yonidagi hovlilarning ko‘rinishi chegaralari, shuningdek yong‘inga qarshi talablarga muvofiq tarzda qabul qilinishi zarur (1-ilova). Ko‘p xonadonli turar-joy uylarining uzun tomonlari o‘rtasidagi masofalar (xonalarning yaqqol ko‘rinmaslik talablaridan kelib chiqqan holda) quyidagicha qabul qilinishi lozim: balandligi 2-3 qavat bo‘lgan turar-joy uylari uchun - 15 m kam bo‘lmagan; 4-5 qavatlilar uchun - 25-30 m kam bo‘lmagan; yashash xonalarida derazalari bo‘lgan ushbu binolarning uzun tomonlari va yon tomonlari uchun - 10 m dan kam bo‘lmagan. 9 va undan ko‘proq qavatli binolar uchun uzun tomonlari o‘rtasidagi masofa - 40-45 m dan kam bo‘lmagan; yashash xonalarida derazalari bo‘lgan ushbu binolarning yon tomonlari uchun - 20-25 m dan kam bo‘lmagan. Izoh. Rekonstruksiya va boshqa murakkab shaharsozlik sharoitlarda ko‘rsatilgan masofalar insolyatsiya, yoritilganlik me’yorlari, yong‘inga qarshi talablarga, shuningdek turar-joy xonalari (istiqomat xonalari va oshxonalari) derazalaridan yaqqol ko‘rinmaslikni ta’minlansin, rekonstruksiya va qurilish ishlarini boshlashdan oldin chegaradosh xususdida mavjud turar va noturar joy binolari egalardan rozilik xatlari olinsin. 26*. Turar joy va jamoat binolari orasidagi masofalar sifatida quyosh tushishi va yoritish, asosiy turar joy binolari va xonadonlar yonidagi hovlilarning ko‘rinish chegaralanishi normalari, shuningdek yong‘inga qarshi talablar kabilarga muvofiq keladigan eng kam masofalar qabul qilinishi lozim (1ilova). Turar-joy va jamoat binolarini joylashtirish va mo‘ljallash, turar-joy binolariga 22 martdan 22 sentyabrgacha bo‘lgan davrda kuniga 2,5 soat davomida, yotoqxona, o‘yin va bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida 3 soat davomida uzluksiz quyosh tushib turishini ta’minlashi kerak. Qayta qurish sharoitida xonalarga quyosh tushishi vaqti 0,5 soatga qisqarishi mumkin. Izoh. Tomorqa uchastkalari bo‘lgan shaxsiy qurilish tumanlari qurilishlarida quyidagi talablar qondirilishi lozim: Har qanday bino qurilishi qo‘shni uchastka egalari bilan kelishilishi. Turar joy uyi va xo‘jalik binolarining qo‘shni uchastkalardan ko‘rinish panaligi ta’minlanishi. O‘z hududidan muhandislik tarmoqlarini kiritish. Piyoda-transport va muhandislik aloqalari, shuningdek umumiy foydalanish ko‘kalamzorlarining saqlanishini ta’minlash. Qo‘shnining turar-joy uyiga quyosh tushishi normalarini ta’minlash. 27. Tez, to‘xtovsiz harakat mavjud va yo‘l harakati boshqariladigan magistral ko‘chalarning qizil chizig‘idan uzoqlik masofasi shovqin darajasiga qarab QMQ 2.01.08-96 “Shovqindan saqlanish” ga muvofiq qabul qilinishi lozim. San M va Q 0339-16 ning 37-bandi talabiga ko‘ra-Balandligi 2-4 qavat bo‘lgan turar-joy binolarining uzun tomonlari o‘rtasida kamida 25 m, balandligi esa 9 qavatdan kamida 40 m masofani olish kerak; yashash xonalari derazalari bilan bir xil binolarning uzun tomonlari va uchlari o‘rtasida - kamida 15 m. Kuchli shamollar bo‘lgan joylarda bu bo‘shliqlarni kamaytirishga ruxsat beriladi, lekin balandlikning 3/4 - 1/2 qismidan kam bo‘lmasligi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil, 27-noyabrdagi PF-6119-sonli Farmonining 4, 5-bandi hamda 3-bob 1-§, 2-§ talablari to‘liq bajarilishi ta’minlansin, O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muxofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan barcha ekologik me’yorlarga amal qilish inobatga olinsin hamda sanitariya gigiena talablariga javob beradigan qurilish mollaridan foydalanilsin. Loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shart, ob’ektni kadastr xujjatlarida ko‘rsatilgan chegarasidan chiqmasdan, Qabristonlar, qushxonalar, chiqindi yig‘ish maydonlari va poligonlaridan, ishlab chiqarish va sanoat sonalaridan, radioktiv va yirik kuchlanishli ob’ektlardan, suv havzalaridan, tarixiy obidalardan, qizil chiziqdan qonuniy hujjat talablarida belgilangan tartibda oraliq masofalarni saqlashligi, O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining “Qurilish ishlarini tashkil qilish bo‘yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (0022-22-son sanqvan) tasdiqlash to‘g‘risida”gi 0022-22-Qarori [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan

2022 yil 6 iyunda hisobga olindi, hisob raqami 89] talablariga qat’iy rioya etilishi, SanQM 0350-17 “Sanitarnыe normы i pravila po oxrane atmasfernogo vozduxa naselennыx mest Respubliki Uzbekistan”, - ajratilayotgan xududda rejalashtirilayotgan qurilish ishlarning bosh tarhi hamda ishchi loyihasi amaldagi me’yor va andozalarga asoslangan xolda ishlab chiqilishini, so‘ng mazkur ishchi loyiha hujjatlari yo‘nalishi bo‘yicha sanitariya qoida va me’yorlari bo‘yicha majburiy ekspertizadan o‘tkazilishini. O‘rnatilgan tartibda ushbuda ko‘rsatilib o‘tilgan Qonun, Kodeks, Farmon, ShNQ, QMQ, San M va Q-me’yoriy xujjatlarga qat’iy amal qilingan xolda tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan hujjatlar qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi uchun Toshkent shahar Arxitektura va qurilish bosh boshqarmasining “Shaharsozlik Kengashi”ga taqdim etish uchun berilgan bo‘lib, qurilish ishlarini boshlashga asos bo‘la olmaydi. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik Kodeksi”, Farmon, PF-6119-sonli Farmoni, ShNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik”, ShNK 1.03.01-16-, ShNK 2.07.02-07-“Insonlarning hayoti va faoliyati muhitini nogironlar ehtiyojlari va aholining kam harakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan holda loyihalash”, KMK 2.01.08-19-Shovqindan saqlanish, KMK 2.01.05-19- Tabiiy va sun’iy yoritish, KMK 2.04.01-98- Vnutrenniy vodoprovod i kanalizatsiya zdaniy, KMK 2.04.02-19- Suv taminoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar, KMK 2.04.03-19-Kanalizatsiya. Narujnыe seti i soorujeniya, KMK 2.04.05-97-Otoplenie ventilyatsiya i konditsionirovanie, KMK 2.04.07-99-Teplovie seti, ShNK 2.04.08-13- Gazosnabjenie. Normi proektirovaniya, ShNQ 2.05.02-07-Avtomobil yo‘llari, ShNK 2.07.05-19-Zelenoe stroitelstvo. Zdaniya jilie i obщestvennie, ShNK 2.08.01-19 - Turar joy binolari, ShNK 2.08.02-09- Jamoat bino va inshootlari, KMK 2.08.04-04- Administrativnыe zdaniya, ShNK 2.09.04-09- Administrativnыe i bытovыe zdaniya predpriyatiy, ShNK 4.13.81-05-Administrativnыe zdaniya, ShNK 4.13.41-06- Predpriyatiya torgovli i obщestvennogo pitaniya, ShNK 4.13.31-06- Predpriyatiya bытovogo obslujivaniya, SanQM 0022-22, SanQM 0350-17, SanQM 0339-16, SanQM 0331-16, SanQM 0008-20, SanQM 0324-16, SanQM 0325-16. Yuqorida keltirilib o‘tilgan Qonun, Kodeks, Farmon, ShNQ, QMQ, San M va Q-qonuniy hujjatlarning barcha band, ilova, jadval talablariga qat’iy amal qilinishi lozim, ushbu qonuniy hujjatlarning barcha band, ilova, jadval talablari buzilgan taqdirda ushbu xulosa o‘z kuchini yo‘qotadi. Javobgarlik loyixachi tashkilot yoki quruvchi zimmasiga yuklatiladi. Bo‘lim boshlig‘i F.I.Xadjaeva, ijr:G.Zubaydullaeva.;

Хулосани тасдиқлаган ходим: O`zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi;



Maъkulланди:

1. Хулоса берувчиларининг хулосасида кўрсатилган талабларни бажариш, муҳандислик тармоғидан ҳимоя масофаси сақлаш ёки ўз ҳисобидан кўчириш, дарахтларни сақлаб қолиш шарти билан, юридик ҳужжатга эга тегишли ер майдони қисмида лойиҳа ишларини давом эттириш.

2. Лойиҳалаш жараёнида АРТда кўрсатилган талабларни бажариш талаби белгиланди.

Қуйидаги талаблар: Лойиҳада келишиб берилган барча бино ва иншоотларда тунги ёритиш тизимини ўрнатиш талаби белгилансини ва ушбу талаб лойиҳада кўрсатиб ўтилсин.

Кенгаш аъзолари томонидан юқорида кўриб чиқилган лойиҳалар юзасидан ШНҚ асосида хар бир берилган талаб ва шартлар тегишлилиги бўйича назоратга олиш ва ушбу ишлар амалга оширилмагунга қадар Тошкент шахар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси бино фойдаланишга қабул қилинмаслиги назоратга олсин.

"Худудий электр тармоқлари" АЖнинг Тошкент шахар филиали, "Hudud gaz poytaxt" газ таъминоти филиали, Тошкент шахар "Сув таъминоти" МЧЖ директорлари хар лойихани аниқ хисоб китобларга таянган холда юкламалар яратиш шартларини аниқ белгилаб берсин. Белгиланган меъёрлардан ошиқча юкламаларда ишлаётган худудларда коммуникация тармоқларига уланишга йўл қўймасин.

Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгаришн вазирлигининг Тошкент шахар бошқармаси хар бир худудни ўрганиб, юқоридаги хар бир лойихалар учун иқлим шароитига мос бўлган айланаси 18 см.дан, баландлиги 3 метрдан кам бўлмаган дарахтлар, 6 литрдан кам бўлмаган буталар экилишини назорат қилсин. Лойихалаш жараёнида атроф муҳитга таъсир кўрсатилиши тўғрисидаги баёнот лойиҳаси (ЗВОС) олиш шарти белгилансин.

Лойихада муҳандислик тармоқларининг юкламалари инобатга олган холда техник шартлар олиш ва ушбу техник шартлар талабларини бажариш хамда уларга туташ худудларнинг кўкаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва навнихолларни экиш) майдонлари лойиха учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонинг 25 фоизидан кам бўлишига йўл қўйилмаслик талаби белгилансин.

Лойиҳа ташкилотлари томонидан лойиҳалаштирилаётган биноларда углеводородлар ва электр энергияси истеъмолини камайтириш максадида, энергия тежамкор қурилиш материалларидан фойдаланиш, иссик сув таъминоти, ёритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотоэлектрик тизимлар, гелиоколлекторлар ва иссиклик насосларини ўрнатиш, муҳандислик тармокларини хам инобатга олинсин.

Лойиҳаларни кўриб чиқиш натижаси бўйича мутасадди бошқармалар ўз йўналиши бўйича маъсул эканлиги белгилаб қўйилсин.

Мазкур ҳудудда лойиҳа асосида қурилиш ишларини олиб бориш учун ёш қўшниларни розилигини олиш тавсия этилади.

Ушбу хулоса қурилиш ишларини бошлашга асос бўлмаслигини, шунингдек, хулоса талаблари бажарилмаган тақдирда хамда тегишли ер майдони чегарасидан чиқиб кетган холда лойихалаш ишлари олиб борилган тақдирда конунчиликда белгиланган тартибда хулосани бекор қилинишига сабаб бўлиши мумкинлигини ва буидай холатда жавобгарлик лойиҳа ташкилоти зиммасига юклатилишини маълум қиламиз.

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

1364